



## TOPONOMIKADA GIDRONIMLARNING O'RNI VA GEOGRAFIK ATAMALAR NOMLANISHIDAGI O'RNI

**Kamolov Azizbek Ulug'bekovich**  
*Ajiniyoz nomidagi NDPI*  
*O'zbek tili kafedrasida o'qituvchisi*

**Soatova Sohiba Farhod qizi**  
*Ajiniyoz nomidagi NDPI Turkiy*  
*tillar fakulteti 2-bosqich talabasi*

**Karjauova Zuxra Tolbaevna**  
*Ajiniyoz nomidagi NDPI Turkiy*  
*tillar fakulteti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada toponomikaning tilimiz rivojlanishida o'rni haqida fikr yuritadi. Hidronimlar va geografik atamalarning kelib chiqish tarixi va toponimlarning tilimizda qo'llanilishi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** toponomika, mikrotoponomiya, buloq, dengiz, geografik hududlar, xalq, tilshunoslik, tarix, geodeziya.

Dunyoda millionlab geografik atamalar-toponimlar bor. Yer yuzidagi barcha geografik ob'ekt, hodisa va voqealarning ham o'ziga atab qo'yilgan nomi bor. Har bir dengiz, har bir daryo, har bir tog'-u cho'qqi, har bir shahar, qishloq, har bir daha, har bir mahalla, ko'cha o'z nomiga ega. Xasanov aytganidek, Toponimika-bu yerning tili'' [1.4] albatta biz toponomik nomlarga juda ham o'rganib ketganmizki, hatto ularning mavjudligini ham esimizdan chiqarib qo'yamiz. O'ylab ko'raylik, bir soniyada geografik nomlar yo'qolib qoldi deb. Kim qayerga borishini ham, qayerdan kelayotganini ham, yana qayerda istiqomat qilishini ham bilmay qoladi. "Bizni o'rab turgan har qanday geografik ob'ektni nomi bor, ular ob'ektlarni bir-biridan farq qilish uchun xizmat qiladi. Shu sababdan, tildagi ko'pgina so'zlar nomlarga (atoqli otga) aylangan.

So'z bilan buyumlarni (kitob, stol, stul, televizor), mavjudodlarni (odam, qush, hayvon, o'simlik), tasavvuriy tushunchalarni (quvonch, g'azab, go'zallik, hordiq), sifat va xususiyatlarni (yaxshi, katta, yomon, chuqur, mehnatkash) va boshqalarni ifodalashi mumkin. Bu so'zlarning har biri aniq bir predmetga tegishli emas, balki butun bir o'xshash predmetlarni belgilaydi [2.97]. Geografik nomlar hayotimizning ajralmas qismi bo'lim bo'lib qolgan desak adashmaymiz.

Geografik nomlar asosan ikki xil bo'ladi keladi: ayrim geografik ob'ektni bildiruvchi atoqli ot, nom va geografik ob'ekt hamda voqea, hodisaning, umumiy nomini ifodalovchi turdosh otlar. "Geografik atamalar, shuningdek, o'simlik va hayvon nomlari biron qo'shimchasiz yoki aniqlovchisiz toponimga aylanmaydi.



Masalan, O‘zbekistonda o‘n minglab quduq bor va har biri o‘z nomiga ega. Bunda quduq so‘zi yonida biron kishining ismi yoki aniqlovchi so‘z (chuqur, katta, uch, to‘rt va h.k.) yo bo‘lmasa- cha, -li kabi qo‘shimchalar bo‘ladi. Agar bordi-yu Quduq, Choqqi, Ariq, Yantoq, Qulon kabi bir atama yoki birgina o‘simlik, hayvon nomidan iborat toponim uchraydigan bo‘lsa, u holda bunday toponimni izohlashda juda ehtiyot bo‘lish kerak. Masalan, Toshkentdagi Zahariqni ko‘pincha Zax deyishadi” [3.75]. Joy nomlari, ya‘ni toponimiya bir necha turga bo‘linadi. Bular gidronimiya (yunoncha gidro — suv), ya‘nidaryolar, ko‘llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo‘ltiqlar, bo‘g‘ozlar, sharsharalar nomlari; oronimiya (yunoncha oros — tog‘, ya‘ni yeryuzasining relief shakllari — tog‘lar, cho‘qqilar, qirlar, vodiylar, tekisliklar nomlari; oykonimiya (yunoncha oykos — uy), polinimiya (yunoncha polis — shahar) yoki urbanonimiya (lotincha urbos — shahar), ya‘ni qishloq hamda shaharlarning nomlari, mikrotoponimiya (yunoncha mikros - kichik), ya‘ni kichik obyektlar: buloqlar, quduqlar, dalalar, o‘tloqlar, daraxtzorlar, jarlar, yo‘llar, ko‘priklar va hatto atoqli otga ega bo‘lgari ayrim daraxtlar nomlari. Bundan tashqari, turli xalq, urug‘-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar etnotoponimlar (yunoncha “etnos” “xalq”) deyiladi. Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa antropotoponimlar (yunoncha antropos — odam) deb atash mumkin [4.89]. Atoqli geografik nomlar toponimlar deyiladi.

V.A.Juchkevich shunday yozgan edi: “toponimik muammolarni tor mutaxassislik doirasida hal qilish, ishga zarar keltiradi va uning amaliy ahamiyatini pasaytiradi”. Bundan xulosa shuki toponimik tadqiqotlar aniq joy bilan bog‘langan holda amalga oshirilsa, shunda o‘rganilayotgan hudud toponimiyasining o‘ziga xos shakllanish xususiyatlari kompleks tarzda tadqiq qilinadi [5.25]. Yunoncha topos-joy va onoma-ism, nom so‘zlardan kelib chiqqan. Toponimlarga, ularning paydo bo‘lishi, turi, ma‘nosi, talaffuz qilinishiga odamlar ancha qadim zamonlardan buyon qiziqib kelishgan. Har bir geografik atama orqasida qanchadan-qancha voqea, tarix va hodisalar, tabiiy hodisalar, tabiiy xususiyatlar, xalq, qabila, urug‘, ayrim odamlarning faoliyati haqidagi qadimiy va qiziqarli ma‘lumotlar yashirinib yotadi. Joy nomlarini talaffuz qilishda va yozishda o‘z qonun qoidalari, nozik tomonlari bor. Ba‘zan bir harf o‘zgarishi oqibatida umuman boshqa joy tushuniladi. Masalan: Amu-Amur, Sirdaryo-Surdaryo, Astana-Asxana, Jurjon-Juzjon, Mari-Mariy, Neva-Niva va boshqalar. Bularning barchasini toponimika fani orqali izlanishlar olib borib o‘rganiladi.

Toponimika so‘zi yunoncha “topos” hamda noma so‘zlaridan hosil bo‘lgan. Bu fan geografik atamalarning kelib chiqishi, rivojlanishi, o‘zgarishini, ularning



mazmuni, shakli va to'g'ri yozilishini o'rganadi. Toponimika geodeziya, tarix va tilshunoslik, siyosatshunoslik kabi fanlari o'rtasidagi fan bo'lib, ular bilan uzviy bog'langan. Bu fanlarning tadqiqot yo'nalishlaridan kelib chiqib ishlaydi. XX asrning boshlarida Yurtimizda toponimika va geografik hududlar bo'yicha faqatgina mahalliy tadqiqotchi olimlarga emas Turkistonni o'rgangan olimlarning ham hissasi yuqoridir. Bular orasida Turkistonni o'rgangan olimlardan V.V. Bartol'd, Tyanshanskiy, E.M. Murzaevlarni alohida ta'kidlash mumkin. V.V. Bartol'd aslida tarixchi, uning toponimikaga tegishli maxsus ishi yo'q. Toponimik ma'lumotlari esa tarixiy asarida 9 jildli bo'lib uchraydi. Uning uy-joy nomlari atalishini sodda, dehqoncha shakl orqali ancha aniq va ishonarli tarzda tushuntirib beradi. U o'z asarlarida hududiy geografik terminlardan juda ko'pini foydalanadi va izohlab ketadi. Bu yo'nalish bo'yicha Vengriyalik olim Armeniy Vamberiyning ham yordami katta bo'ldi. U Turkistonga yashirin tarzda sayohat qiladi va shu sayohati davomida anchagina asarlar yozadi. Asarlari "Markaziy Osiyoning geografik nomlari", "Buxoro tarixi" orqali 600dan ortiq joy nomlarini keltirib o'tadi. Yaqin oraliqdagi joy nomlarini o'rganuvchi olimlardan Egamov, Nafasovlarning ham bu sohada olib borgan ishlari muhim manba sifatida tan olinadi. Yaqin oraliqdagi joy nomlarini o'rganuvchi olimlardan Egamov, Nafasovlarning ham bu sohada olib borgan ishlari muhim manba sifatida tan olinadi. Joy nomlarining kelib chiqishi bir qarashda juda oddiy va hech qanday asoslarsiz qo'yilgandek ko'rinadi. Bunga misol qilib Ukrainalik olimlar Samarqanddagi Qirqtog'dan topilgan g'orga Kiev g'ori deb nom qoyishadi. Ba'zan geografik nomlar o'sha joyni kashf etgan olim yoki sayyoh nomiga, yoki urush paytida qahramonlik ko'rsatganlar nomiga qo'yiladi. Masalan, Komondor orollari, Qong'iro't, Shumanay, Nazlimxansuliu kabi. Ko'pgina geografik nomlar oldin oddiy turdosh va qo'shma otlar bo'lgan vaqtlar o'tib esa ular til taraqqiyoti davrida o'zgarishga uchrab borgan. Yuqorida keltirib o'tgan Qoraqalpog'iston Respublikasining tumani bo'lgan Shomanay nomining qo'yilishi XIII asrlarga borib taqaladi. Bu joy nomi Shamenay ismli shohni qizi sharafiga qo'yilgan bizni davrimizgacha o'zgarishga uchrab shu holatga keladi. Yana Qong'iro't nomi ham huddi shunday ya'ni bu so'z qong'ir-ot so'zlarining qo'shilishidan paydo bo'lgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir geografik hudud o'z nomlanishiga ega va tarixiy jarayon davomida o'zgarib borgan. Hozirgi davrda biz toponomik nomlarsiz hayotimizni tasavvur qilishimiz qiyin. O'tmishdan ma'lumki barcha narsalar vaqt o'tishi bilan yoqolib ketadi. Lekin geografik hudud nomlari qolaveradi. O'zgarishga uchrashi mumkin lekin butunlay yoqolib ketmaydi. Bizdan esa nafaqat



o'zimiz yashab turgan joy nomlarining tarixini balki, atalish tarixini ham bilishimiz talab qilinadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. H.Xasanov "Yer tili" "O'qituvchi" Tosh-1977.
2. Q.M.Hakimov, M.T.Mirkamilov "Toponimika" darslik Toshkent "Tafakkur avlodi" 2020-y.
3. Qo'chqor Hakimov "Toponimika" "Mumtoz so'z nashriyoti" Tosh.2016-y
4. S.Qorayev "Toponimika" "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti". Tosh. 2006-y.
5. Zohid Madrahimov "Tarixiy Toponimika" "Navro'z nashriyoti" Tosh.2017-y

**Internet saytlari:**

6. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
7. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)

